

BIR YOSHGACHA BO'LGAN CHAQOLOQLARDAGI NEKROTİK ENTEROKOLITLARNING PATOMORFOLOGIYASI

Chartakov Dilmurod Kaxromonovich

Andijon davlat tibbiyot instituti

Patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrası, t.f.n., dotsent

Аннотация

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda nekrotik enterokolit (NEK) ichakning yallig'lanish kasalligi bo'lib, neonatal gastroenterologiyada eng xavfli kasalliklardan biri hisoblanadi. Nekrozlovchi enterokolit bilan kasallanishning o'rtacha xolati 2,4:1000 yangi tug'ilgan chaqaloqlarni (1 dan 10:1000 gacha) yoki neonatal intensiv terapiya bo'limlariga yotqizilgan umumiy bolalarning taxminan 2,1% (1 dan 7% gacha) ni tashkil qiladi. Kasallikning uchrashi bola tug'ilganda gestatsiya muddatining qisqarishi bilan ortadi. NEK bilan kasallanishning 10-20% muddatida tug'ilgan chaqaloqlar ulushiga to'g'ri keladi. So'nggi yillarda nekrotik enterokolit tana vazni kichik bo'lgan erta tug'ilgan chaqaloqlar orasida kasallanish va o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Kasallikning tashxis qo'yish qiyin bo'lgan dastlabki bosqichlarida eng muhim diagnostika omillarini faol o'rganish neonatologlar va bolalar jarroxlari birinchi vazifalaridan biri bo'lib, davolash usuli tanlash muhim vazifa bo'lib kolmokda.

Kalit so'zlari: erta tug'ilgan chaqaloqlar, nekrotik enterokolit

Аннотация

Некротизирующий энтероколит (НЭК) новорожденных представляет собой воспалительное заболевание кишечника и является одним из самых грозных заболеваний в неонатальной гастроэнтерологии. Средняя частота заболеваемости некротизирующим энтероколитом составляет 2,4:1000 новорожденных (от 1 до 10:1000) или около 2,1% (от 1 до 7%) от общего числа детей, поступающих в неонатальные отделения интенсивной терапии. Частота встречаемости заболевания нарастает с уменьшением срока гестации ребенка при рождении. На долю доношенных новорожденных приходится 10-20% случаев заболевания НЭК. В последние годы некротический энтероколит остается одной из ведущих причин заболеваемости и смертности среди недоношенных детей с малой массой тела. Активное изучение наиболее важных диагностических факторов на ранних стадиях заболевания, которое трудно диагностировать, выбор метода лечения является одной из первых задач неонатологов и хирургов детского отделения.

Ключевые слова: недоношенные дети, некротический энтероколит

Annotation

Necrotizing enterocolitis (NEC) is a neonatal inflammatory bowel disease and is one of the most threatening disease in neonatal gastroenterology. The average incidence of necrotizing enterocolitis 2,4:1000 infants (1 to 10:1000), or about 2.1% (from 1 to 7%) of the total number of children entering the neonatal intensive care unit. The incidence of disease increases with decreasing gestational age at birth. The share of full-term infants accounts for 10-20% of cases of NEC. In recent years, necrotic enterocolitis has remained one of the leading causes of morbidity and mortality among premature infants

with low body weight. The active study of the most important diagnostic factors in the early stages of the disease, which is difficult to diagnose, the choice of a treatment method is one of the first tasks of neonatologists and surgeons of the children's department.

Key words: premature babies, necrotic enterocolitis.

Kirish. Nekrotik enterokolit (NEK) yangi tug'ilgan chaqaloqlarning og'ir kechuvchi va ko'pchilik holatlarda o'limga olib keluvchi kasallikdir. Nekrotik enterokolit to'satdan boshlanib, tez progressiv klinik kechishga ega [1.3.4].

Neonatal intensiv terapiya sohasidagi so'nggi yutuqlar tufayli juda kam tana vazniga ega bo'lgan erta yashab qolgan chaqaloqlarning miqdori oshdi va unga parallel NEK rivojlanishiga moyil bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqlar soni ham ko'paydi [2.5].

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlardagi nekrotik enterokolitlarning patomorfologiyasini o'ranish.

Tadqiqot materiali va usullari: Andijon shahridagi ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasida 2020-2024yillar davomida NEK bilan tashrix qilingan 1-7 kunlik, 8-28 kunlik va bir yoshgacha bo'lgan davrdagi 37 nafar chaqaloqlar ichak to'qimalarining tashrix biopsiya materiallari patogistologik tadqiqot qilindi. Ularning 22 nafarini tirik qolgan chaqaloqlar (ijobiy natija), 15 nafarini esa vafot etgan chaqaloqlar (salbiy natija) tashkil etdi.

Tashrix biopsiya materiallari 10% formalin eritmasida fiksastiyalandi, bo'lakchalar spirtli o'tkazgichdan o'tkazilib, parafinli blokklar tayyorlandi, gematoksilin-eozin usulida bo'yaldi.

Gistologik preparatlar «LEYKO» biomet mikroskop yordamida va gisto-skaner yordamida skaner kilindi, olingan natijalar nonozume programmasida patomorfologik o'zgarishlar o'rganildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: patogistologik tadqiqotlarda ichaklarni zararlanishini chuqurligi va destruktiv jarayonlar darajasi ushbu yosh guruxlarda turlicha bo'lib, kompensator – moslanish jarayonlariga bog'liq namoyon bo'ldi.


Shilliq qavat vorsinkalari shishgan, vazoehtaziyalar, keng ko'lamli

gemorragiyalar, mushak plastinkasi silliq miotsitlarining lizis joylari, poli- va mononuklearlar bilan infiltratsiyalangan shilliq osti asosining shishi aniqlandi. Yaralar sohasida diffuz leykotsitar va gemorragik infiltratsiya bilan nekrozga uchragan to'qima aniqlandi, nekrozga uchragan tomirlar konturlari kuzatildi. Makrofaglar darajasining oshish tendensiyasi aniqlandi.

Shilliq qavatning total nekrozi sohalarida destruksiyaning mushak qavati va seroz qavatga tarqalganligi aniqlandi, u yerda fibrinoz-yiringli ekssudat topildi. Kasallikning "yaxshi" kechishida ingichka va yo'g'on ichakda diffuz limfoid to'qima va follikulalar shakllanishigacha bo'lgan limfoid infiltratsiya kuchaygan sohalar aniqlandi.

Ularning periferiyasida makrofaglar, eozinofil granulotsitlar va neyetrofil granulotsitlar mavjud bo'lgan limfoplazmotsitar infiltratsiya aniqlandi. Adekvat strukturaviy determinatsiyalangan to'qimada immun javobining shakllanishi nekrotik enterokolitning "yaxshi" kechishini bashorat qilish imkonini berdi. NEKning "noxush" kechishida ingichka ichakda ham, yo'g'on ichakda ham epiteliyal qatlam funksiyasi vastrukturasini o'zgarishlari aniqlandi.

Epiteliyal qatlam tiklanishi faqatgina hujayradan tashqari matriks va bazal membrananing maxsus tarkibi mavjud bo'lganda, u bilan aloqada bo'lgan fibroblast va fibrotsitlar ishtirok etganda, labrotsitlar epiteliyal atrofida joylashganda hamda ularning hayot faoliyati mahsulotlari epiteliyalning bazal membranasi tarkibida aniqlanganida kuzatildi. Yo'g'on va ingichka ichakning barcha qismlarida polimorf yadroli leykotsitlar infiltratsiya, shish, qon va limfa aylanishining buzilishi, staz, diapedez qon quyilishlar, gialin tromblar kuzatildi.





Rasm-1. A

- Ingichka ichak rezektsiya qilingan sohasining makkroskopik manzarasi, shilliq va ostki qatlamlarida shish, mayda qon quyilishlar, pnevmotoz, o'chog'li deskvamtsiya, eroziyalar

hosil bo'lishi. B-Yonbosh ichak rezektsiya sohasi - shilliq qatlami burmalari yassilashgan, o'chog'li qon quyilishlar, eroziya va yaralar hosil bo'lishi, shishi

Ichakning tizimli dezintegratsiyasi sharoitida mushak qavatining qisqarish qobiliyatining yetishmasligi tufayli limfa tomirlari drenaj vazifasini buzilishi kuzatildi.

"Noxush" prognozda mushak plastinkasining destruksiya, shilliq osti qavatining infiltratsiyasi, keng nekroz o'choqlarining mavjudligi, gemorragiyalar qayd etildi.



Rasm-2.

a-Rezektsiya qilingan iliotsekal soha shilliq qatlamida limfoid infil'tratsiya, shilliq ostki qatlamlarida venoz to'laonlilik, ayrim tomirlarida eritrotsitlar gemolizi, diapedez qon quyilishlar, ayrim tomirlarini trombozi, shish, o'chog'li limfo-leykotsitar infil'tratsiya, mushak tolalarini nekrozi, fragmentatsiyasi. b-Rezektsiya qilingan yo'g'on ichak yonbosh ichak sohasi muskul, seroz pardalari, atrof yog' to'qimalari. Ularda venoz to'laonlilik, diapedez qon quyilishlar, oraliq to'qimasi shishi, nekrobiotik o'zgarishlar. Bo'yash gem. - eozin usulida. x10*12,5.

Subseroz va seroz qavatlarda lizis o'choqlari, neytrofil granulotsitlar bilan diffuz infiltratsiya, nekroz o'choqlari qayd etilgan mushak qatlamigacha kirib borgan, chetlari ko'chgan yaralar, seroz pardada leykotsitlar, fibrin, eritrotsitlardan iborat qatlamlar topildi.

NEKning "noxush" kechishida limfoid follikulalarda germinativ markazlar bo'lmasligi, plazmotsitlarni shakllanmasligi, makrofaglar to'qima immun javobida ishtirok

etmasligi, limfotsitlar infiltratsiyani sustligi, vazodilatatsiya, silliq mushak to'qimalarining parezi, shishlar kuzatildi.

Ekstratsellyulyar matriksning fibroblastik qator hujayralarining strukturaviy va funksional yetishmovchiligi epitelial-stromal aloqalarning buzilishiga va epiteliyning deskvamatsiyasini keltirib chiqarib, shilliq, shilliq osti qavatlarida destruktiv va ekssudativ jarayonlarning ustun bo'lishiga yordam berdi.

Xulosa. Gistologik o'zgarishlarning keltirilgan tahlili kasallik oqibati yo'nalishini ham nazariy, ham amaliy jihatdan bashorat qilish imkonini beradi. Fibroblastik qator hujayralarining yetarli miqdorda bo'lmasligi, epitelial-stromal kontaktlarning bir-biridan ajralib qolishi ko'rinishidagi hujayralar tarkibining o'zgarishi ekssudativ jarayonlar zo'rayib borishi bilan ichak devorining yanada ko'proq destruksiyaga uchrashiga olib boradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lin P.W., Stoll B.J. Necrotising enterocolitis. J. Lancet. 2019. 368. 1271-83.
2. Козлов Ю. А. Стриктуры кишечника у новорожденных после некротизирующего энтероколита (пост-нэк стриктуры кишечника) //Детская хирургия. Издательство. «Медицина» Москва. 2020. Т.20. №6. с.228-234.
3. Подкаменев В. В. Язвенно-некротический энтероколит у новорожденных / М.: ОАО «Издательство «Медицина». Иркутск. НЦРБХ СО РАМН. 2019. 244. с. 163-170
4. Henry C. W. Current issues in the management of necrotizing enterocolitis. J. Seminars in Perinatology. 2019. 28 (3). 221-33
5. Neu, J. Necrotizing Enterocolitis: The Future. Neonatology, 2020; 117(2), 240–244.